

# **“O‘zbekgeofizika” AJning korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalari haqidagi 2025 yilning 3 choragi bo‘yicha HISOBOT**

## **I. Umumiy ma’lumot**

“O‘zbekgeofizika” AJning 2025 yilda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar dasturi hamda “O‘zbekgeofizika” AJda korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarga rioya etilishini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti” talablari asosida joriy yil bo‘yicha Jamiatga turli aloqa kanallari orqali kelib tushgan murojaatlar bo‘yicha monitoring tartibidagi o‘rganishlar olib borildi.

Jamiyatga kelib tushadigan ariza va murojaatlarni qabul qilish va hisobotini yuritish “Huquqiy masalalar va murojaatlarni ko‘rib chiqish” bo‘limi tomonidan, bo‘lim Nizomiga hamda “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 11 sentabrda 445-sonli Qonuniga va Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 7 maydagi 341-sonli Qaroriga asosan amalga oshiriladi.

Joriy yilning 3 choragi davomida Jamiatga turli aloqa kanallari orqali jami 10 ta ariza va murojaatlar (6 ta elektron shaklda va 4 og‘zaki) kelib tushgan, shundan 1 tasi kadrlar masalasi bo‘yicha (ishga joylashish), 2 tasi moddiy yordam olish to‘g‘risida, 1 tasi uy-joy masalasi va 6 tasi boshqa masalalar bo‘yicha. Shundan, 2 tasi ijobiy hal qilindi, 8 tasi bo‘yicha huquqiy tushuntirish berildi.

Ushbu kelib tushgan murojaatlardan 3 tasida korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi holatlari mavjudligi bo‘yicha o‘rganishlar olib borilgan, Jumladan6

1) Joriy yilning 9 iyul kuni O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi ishonch telefoni orqali, Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi tumani, Karamtepa ko‘chasida yashovchi fuqaro “O‘zbekgeofizika” AJ xodimi **“Sh.J.S.”**ning 01.07.2025 yildagi 0021/25-sonli yo‘llagan “O‘zbekgeofizika” AJ “Yakkabog‘ geofizika ekspeditsiyasi” filiali “Qorajar” loyihasi doirasida ishga jalb qilingan ishchilar tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Orol dengiz hududida qolib ketgan ishlarni bajarayotganligi va ish vaqtiga soat 05-00 dan 00-00 gacha belgilanganligi va ushbu noqonuniy holatlarni o‘rganishni so‘rab yozgan murojaati kelib tushgan;

2) 2025 yilning 18 avgustida “Yakkabog‘ geofizika ekspeditsiyasi” filiali bir guruh ishchi-xodimlari **“M.Ye.”** va boshqalar tomonidan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga yo‘llagan (2025 yil 18 avgust 07/5692-sonli xat) filialda ish haqi va boshqa to‘lov larning oshirilmasligi, metallolom to‘lovleri va boshqa moliyaviy kamchiliklar mavjudligi xususida yo‘llagan murojaati;

3) Joriy yilning 28 avgustida Qashqadaryo viloyati, Yakkabog‘ tumani, Guliston MFYda yashovchi fuqaro “O‘zbekgeofizika” AJ xodimi **“T.M.O.”**ning 142368-s/25-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezident pochtasi orqali “O‘zbekgeofizika” AJ “Yakkabog‘ geofizika ekspeditsiyasi” filiali rahbariyati tomonidan moliyaviy mablag‘larning sarflanishi va mansab vakolatlarini suiiste’mol qilinishi holatlari bo‘yicha kelib tushgan shikoyat xati.

## **II. Ko‘rib chiqish natijalari**

1) Fuqaro **“Sh.J.S.”**ning murojaatini o‘rganish natijalariga ko‘ra, “Yakkabog‘ geofizika ekspeditsiyasi” filiali “O‘zbekgeofizika” AJ Davlat dasturlari doirasida

“Qoraqalpoq-3D” partiyasi ishini jadallashtirish uchun “Qoraqalpoq-YaGE” texnologik otryadi tashkil qilinganligi va Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligining 2025yil 16 iyundagi 05-1607-sonli Faksogrammasiga asosan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mo‘ynoq tumani hududida partiyada ish vaqtি ertalab soat 06-00 dan 11-00 gacha va kech soat 17-00 dan 22-00 gacha (havoning yuqori darajadaligi sababli) belgilanganligi va dala ishlari tasdiqlangan loyihibar doirasida olib borilayotganligi va amaldagi qonun buzilish holatlari aniqlanmaganligi sababli arizani o‘rganish to‘xtatilgan;

2) “Yakkabog‘ geofizika ekspeditsiyasi” filiali bir guruh ishchi-xodimlari “M.Ye.” va boshqalar tomonidan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga yo‘llagan (2025 yil 18 avgust 07/5692-sonli xat) filialda ish haqi va boshqa to‘lovlarning oshirilmasligi, metallolom to‘lovlari va boshqa moliyaviy kamchiliklar mavjudligi xususida yo‘llagan murojaati yuzasidan “O‘zbekgeofizika” AJning 2025 yil 29 avgust kunidagi 122-sonli burug‘iga asosan ishchi-guruh tomonidan, arizada ko‘rsatilgan holatlar atroflicha o‘rganilib, korrupsiya va boshqa qonunbuzilish holatlari aniqlanmagan.

O‘rganish natijalari bo‘yicha arizachilarga, Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligiga va Kambag‘allikni qisqartirish vazirligiga 2025 yil 18 avgustdagи 01-1232-sonli javob xati yuborilgan;

3) Joriy yilning 28 avgustida “O‘zbekgeofizika” AJ xodimi “T.M.O.”ning “Yakkabog‘ geofizika ekspeditsiyasi” filiali rahbariyati tomonidan moliyaviy mablag‘larning sarflanishi va mansab vakolatlarini suiiste’mol qilinishi holatlari bo‘yicha kelib tushgan shikoyat xati yuzasidan, “O‘zbekgeofizika” AJning 2025 yil 29 avgustidagi 121-sonli buyrug‘iga asosan o‘rganish natijasiga ko‘ra, , arizada ko‘rsatilgan aksariyat xodimlar imzosi xodimlar tomonidan imzolanmaganligi, boshqalari esa arizaning mazmun mohiyatini tushunmasdan imzolaganliklarini ta’kidlashgan. Qo‘sishma ravishda, ishchi-guruh tomonidan arizada ko‘rsatilgan holatlar atroflicha o‘rganilib, korrupsiya va boshqa qonunbuzilish holatlari aniqlanmagan.

O‘rganish natijalari bo‘yicha arizachiga va Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi 2025 yil 11 sentabrdagi 20-1326-sonli javob xati yuborilgan.

Kelib tushgan arizalarni o‘rganish jarayonida korrupsiya holatlariga yo‘l qo‘ylganligi to‘g‘risida ma’lumotlar olinmadı.

### **III. Minimallashtirish choralar**

Jamiyat ijro apparati xodimlarini lavozimini oshirish bo‘yicha ishchi guruh hamda Jamiyat xodimlarining xatti-harakatlari yuzasidan “Odob-axloq” komissiyasi yig‘ilishlarida komplayens nazorati bo‘limi xodimlari ishtiroki ta’mindandi. Doimiy ravishda Jamiyatga kelib tushayotgan ariza va murojaatlarni monitoring tartibida o‘rganiladi va korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tqaziladi. Jamiyat uy-joy komissiya hamda buxgalteriya faoliyati monitoring qilinadi.